

## "SHAYBONIYNOMA" DOSTONIDAGI VAZN IMKONIYATLARI

**Shahnoza Muhitdinovna RAHMONOVA**

Doktorant, PhD

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## МЕТРИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЭПОСА «ШАЙБОНИЙНОМА»

**Шахноза Мухитдиновна РАХМОНОВА**

Докторант, PhD

Ташкентский государственный университет узбекского языка и  
литературы имени Алишера Навои  
Ташкент, Узбекистан

## METRICAL POSSIBILITIES OF "SHAYBONIYNOMA" EPIC

**Shahnoza Muhitdinovna RAKHMONOVA**

Doctoral student, PhD

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature  
Tashkent, Uzbekistan [shahnoza@navoiy-uni.uz](mailto:shahnoza@navoiy-uni.uz)

UDC (УЎК, УДК): 801.6:891.322.

**For citation (iqtibos keltirish uchun,  
для цитирования):**  
Rahmonova Sh.M. "Shaybonynoma"  
dostonidagi vazn imkoniyatlari //  
O'zbekistonda xorijiy tillar 2022. — № 3 (44).  
— B. 144-154.  
<https://doi.org/10.36078/1587921781>

**Received:** March 25, 2022

**Accepted:** June 17, 2022

**Published:** June 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative  
Commons Attribution International License  
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Annotatsiya.** Muhammad Solih "Shaybonynoma" dostonining 1510 yili ko'chirilgan nusxasi Vena kutubxonasida saqlanadi. Herman Vamberi 1885 yili Venada ushbu nusxa asosida asarni nemischa tarjimasi bilan birga nashr ettirgan. Sharqshunos olim P. M. Melioranskiy 1908 yili Sank-Peterburgda asarni ikkinchi marta nashr ettirdi. Ushbu nashrni P.M.Melioranskiy Vamberi nashri asosida tayyorladi. O'zbek adabiyotida "Shaybonynoma" dostonini E. Shodiev 1989 yili P. M. Melioranskiy nashri asosida nashr ettirdi. Biz mazkur tadqiqot-maqolada mazkur nashrdan foydalandik. Maqolada "Shaybonynoma" dostonidagi ritmik variatsiya masalasi dostonning janr imkoniyatlari, vazn xususiyatlari, mazmun takomili va qofiya tizimi bilan bog'liqlikda o'r ganilgan. Jangnomda yo'nali shidagi mazkur asarning shoir ijodidagi o'rni tadqiq etilgan. "Shaybonynoma"da foilotun aslining maxbun tarmog'iga xos bo'lgan ko'pvaznlilikka oid jihatlar tahlil etilgan. Tadqiqotni yozish jarayonida Abdurauf Fitratning "Muhammad Solih" maqolasi, A.Hojiahmedovning "O'zbek aruzi lug'ati" (1998) kitobi, D.Yusupovning "Alisher Navoiy "Xamsa" sida mazmun va ritmnning badiiy uyg'unligi" monografiyasi va D.Zohidovaning "Aruz saboqlari" (2016) qo'llanmasi kabi manbalardagi nazariy qarashlar o'r ganildi. Qahramonlik dostonlari uchun ramali musaddasi maxbuni mahzuf emas, balki mutaqoribi musammani maqsur vazni qulayligi ochib berildi.

**Kalit so'zlar:** doston; janr; vazn; ramal; ko'pvaznlilik; ritmik variatsiya.

**Аннотация.** Копия эпоса «Шайбонийнома», переписанная в 1510 году, хранится в Венской библиотеке. Герман Вамбери опубликовал «Шайбонийнома» в Вене в 1885 году на основе этой копии вместе с немецким переводом. Востоковед П. М. Мелиоранский издал это произведение в 1908 году в

Петербургге по изданию Вамбери. В узбекской литературе дастан «Шайбонийнома» был опубликован Э. Шодиевым в 1989 году на основе публикации П. М. Мелиоранского. В статье рассматривается проблема ритмических вариаций в связи с жанровыми возможностями, метрическими особенностями, смысловым совершенством и просодией дастана Мухаммада Салиха «Шайбонийнома», а также исследуется место этого произведения в творчестве Мухаммада Салиха. В статье анализируется роль метра и его ритмической вариативности в системе аруза на основе «Шайбонийномы». В процессе написания этой статьи были использованы теоретические положения следующей литературы: статьи Абдурауфа Фитрата «Мухаммад Салих», книги А. Ходжиахмедова «Словарь узбекского аруза» (1998 г.), монографии Д. Юсуповой «Художественная гармония содержания и ритма в “Хамсе” Алишера Навои», Д. Захидовой «Уроки аруза» (2016). Наше исследование показало, что для героического эпоса было характерно не рамали мусаддаси маҳбуни маҳзуф, а метр мутакориби мусаммани максур.

**Ключевые слова:** эпос; жанр; метр; рамал; ритмические вариации; полифония.

**Abstract.** A copy of the epic “Shayboniynoma” made in 1510 is kept in the Viennese library. German Vamberi published the work in Vienna in 1885 based on this copy, together with a German translation. Orientalist P.M. Melioransky published the work in 1908 in St. Petersburg for the second time. This edition was prepared by P.M. Melioransky based on the Vamberi edition. In Uzbek literature, the epic “Shayboniynoma” was published by E. Shodiyev in 1989 based on the publication of P.M. Melioransky. This article examines the genre possibilities, metrical characteristics, semantic perfection, and prosody of Muhammad Salih’s epic “Shayboniynoma”. The poet’s work reflects the literary features of this genre. “Shayboniynoma” analyzes the role of polyphony and rhythmic variation inherent in the mahbun meter of the foilotun prosody of Aruz system. We used this publication to express the reading of Doston bayts, the reaction to the events of vasl, imola, tag‘yir. It is worth mentioning that Abdurauf Fitrat’s article “Muhammad Salih”, A. Hojiahmedov’s book “Dictionary of Uzbek Aruz” (1998), D. Yusupova’s monograph “Artistic harmony of content and rhythm in Alisher Navoi’s «Xamsa»” and D. Zahidova’s “Lessons of Aruz” (2016) served as a methodological basis of the study.

**Keywords:** epic; genre; meter; ramal; polyphony; rhythmic variation.

**Kirish.** Sharq epik poeziyasida, dastlab jangnoma va qahramonlik yo‘nalishidagi dostonlar vujudga kelgan. Epik mazmunning qahramonlik xarakteriga ega bo‘lishi qahramonlik dostonlarining bosh xususiyatidir (7). Jangnoma va qahramonlik yo‘nalishidagi dostonlarda, asosan, qahramonlarning mardligi, jasurligi, ularning yurt tinchligi, ravnaqi yo‘lida qilgan olijanob ishlari tarannum etiladi. Bu poeziyaning ilk namunasi Mas’ud Marvaziy qalamiga mansub bo‘lib, mazkur dostondan bizgacha bir necha baytlargina yetib kelgan (12).

“Shayboniynoma” janr e’tibori bilan jangnoma xarakteriga ega bo‘lgan doston hisoblanadi. Doston 76 bob, to‘qqiz ming misraga yaqin baytdan iborat. Dastlabki uch bobda an’anaviy hamd, munojot, na’t, to‘rtinchi bobdan o’n to‘rtinchi bobgacha Shayboniyxon madhi keltiriladi. XV bobdan kitob nazmining sababi hamda voqealarni tasvirlashga kirishiladi. “«Shayboniynoma» o‘z ichiga olti yillik (1499–1505) tarixiy

voqeani olib, shayboniyalar bilan temuriylar o‘rtasidagi sulolar urushini tasvirlaydi” (9).

“Shayboniynoma” Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asari tipidagi qahramonlik dostonlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi: “Saddi Iskandariy”da tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar faoliyatini tasvirlash vazifasi qo‘yilmaydi. «Shayboniynoma»da esa, shoirning tutgan pozitsiyasidan qat’iy nazar, tarixiy voqe va tarixiy shaxslar tasvirlanadi. Binobarin, «Shayboniynoma» o‘zbek adapiyoti tarixida jangnomaning yangi turidir” (5). Muhammad Solih jangnoma xarakteriga ega ushbu dostonini an’anaviy mutaqorib bahri vaznlarida yozmadni. Aksincha, Alisher Navoiy “turkiy” deb atagan ramal bahri vaznlarida bitdi. Bu bilan adib jangnoma mavzusidagi dostonlarga ramal bahrini olib kirdi.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘zbek adapiyotida “Shayboniynoma” dostonining o‘lchov imkoniyatlari haqida deyarli nazariy manbalar mavjud emas. Faqat, Abdurauf Fitrat “Muhammad Solih” maqolasida, A.Hojjahmedov “O‘zbek aruzi lug‘ati” (1998) kitobida, D. Zohidova “Aruz saboqlari” (2016) qo‘llanmasida qisman to‘xtalgan. Adabiyotshunoslikda Muhammad Solihning hayoti va ijodi haqida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ning beshinchi majlisida Muhammad Solih haqida alohida to‘xtaladi. “Shayboniynoma” dostonining qo‘lyozma nusxalari juda oz bo‘lib, bizgacha uning 1510 yili, shoir hayotligida ko‘chirilgan nusxalarning biri yetib kelgan. Bu nusxa Vena kutubxonasida saqlanadi. 1885 yilda sharqshunos olim Herman Vamberi shu nusxa asosida asarni nemischa tarjimasi bilan birga Venada nashr ettiргan. Keyinroq rus sharqshunos olimi P.M.Melioranskiy o‘sha qo‘lyozmaning fotokopiyasi va Vamberi nashri asosida 1908 yilda Sank-Peterburgda asarni ikkinchi marta nashr ettirdi (6). E.Shodiev P.M.Melioranskiy nashri asosida “Shayboniynoma” dostonini 1989 yili nashr ettirdi. Biz tadqiqotda mazkur nashrdan foydalandik.

**Asosiy qism.** “Shayboniynoma” dostoni ramal bahrining maxbun tarmog‘i vaznlarida yaratilgan. A.Hojjahmedov “O‘zbek aruzi lug‘ati” kitobida ramal bahriga mansub ko‘pvaznli olti ruknli she’riy asarlarni yozishda, asosan, *solimi maxbun* va *maxbun* shahobchalaridagi 8 vazndan foydalanilganligini ta’kidlaydi (10). Solimi maxbun shahobchasi to‘rt vaznni o‘z ichiga oladi:

1. Ramali musaddasi solimi maxbuni mahzuf.
2. Ramali musaddasi solimi maxbuni maqsur.
3. Ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’.
4. Ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’i musabbag‘.

Mazkur to‘rt vaznning har biri dastlabki ruknda *foilotun* asli (*solim*) bilan boshlanib, o‘rtadagi ruknlar ushbu aslning *maxbun tarmog‘i* – failotun (U U –)ga, oxirgi ruknlar esa *maxbuni mahzuf* (failun U U –), *maxbuni maqsur* (failon U U ~), *maqtu’* (fa’lun –) yoki *maqtu’i musabbag‘* (fa’lon – ~) tarmoqlarining biriga teng bo‘ladi. Demak, *solimi maxbun* shahobchasi ushbu vaznlarning oldingi ikki rukni bir xil bo‘lib, aruz va zarbdagina biroz farqlanadi.

“Shayboniynoma” dostoni an’anaviy hamd bilan boshlanadi. Dostonning ilk baytlari

Hamd angokim, tilim etti go‘yo,  
Hamd angokim, ko‘zim etti bino (6)

singari *ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’* o‘lchovida. Uning ruknlari va chizmasi har misrada

foilotun / failotun / fa'lun  
– U – – / U U – – / – –

tarzida ifodalanadi. Vaznning asosini *foilotun* aslining solimi (birinchi ruknlarda), maxbun tarmog‘i — *failotun* (ikkinchi ruknlarda) va maxbuni maqtu’ tarmog‘i — *fa'lun* (uchinchchi ruknlarda) tashkil etadi. Adib baytda “vazn jihatidan tengdoshlik” ma’nosini anglatuvchi muvozana she’riy san’atidan ham mohirlik bilan foydalangan. Xususan, baytda birinchi misradagi **tilim** so‘zining ikkinchi misradan o‘rin olgan **ko‘zim** so‘zi bilan vazn va ohangda tengligi talaffuzda yaqqol seziladi. Vahob Rahmonov *muvozana* san’atining o‘ziga xos belgisi — misralarda ostinma-ustin turgan so‘zlarning o‘zaro ritmik muvofiqligi, tovush bo‘laklarining uyg‘un takrori ekanligini ta’kidlaydi (8). Baytda vazn talabi bilan vasl hodisasi ham istifoda etilgan. Unga ko‘ra, **hamd angokim, tilim etti, ko‘zim etti** so‘zlarini **hamd+angokim, tili-m+etti, ko‘zi-m+etti** singari o‘qiladi.

“Shayboniynoma” dostonida solim shahobchasining yuqoridagi vaznidan misralardagi hijolarning o‘ta cho‘ziqligi bilan farqlanuvchi *ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’i musabbag’* (– U – – / U U – – / – ~) o‘lchovi ham uchraydi. Adib dostonda ishq jonini shod, hushvaqt aylagani hamda hayotini shod, vaqt chog‘ qilganligini quyidagi baytlarda muvozana san’atidan mahorat bilan foydalanim bitadi:

Ishqdin ay/ladi jonim/ni shod,  
– U – – / U U – – / – ~  
Ishqdin qil/di ravonim/ni shod (6).  
– U – – / U U – – / – ~

Keltirilgan baytda sadr va ibtidoda *foilotun* aslining *solimi*, hashvlarda *maxbun* tarmog‘i, aruz hamda zarbda *maqtu’i musabbag’* dan foydalanilgan. Dostonda hikmatomuz baytlar ham beriladi.

Har kim o‘z hafsalasig‘a yarasha,  
Har kim o‘z silsilasig‘a yarasha.

Topti aning karamidin in’om,  
Chi yamon-yaxshi, chi xosu chi avom (6).

Bayt mazmunida har kim o‘z iqtidori, imkoniyatiga yarasha, shuningdek, tabaqasiga yarasha bo‘lishi, shunda Uning marhamatidan yaxshi-yomon ham, xos bandalar ham, oddiy xalq ham in’om topishi aytildi.

Keltirilgan dastlabki baytda *ramali musaddasi solimi maxbuni mahzuf* (ruknlari va taqtisi: foilotun failotun failun –U – – / UU – – / UU –) vaznnini qo‘llash orqali ostinma-ustun turgan so‘zlarning hammasini o‘zaro teng, ohangdosh, vazndosh va qofiyadosh bo‘lishiga erishilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, ushbu bayt tarse’ san’atiga asos bo‘lganini ko‘rish mumkin. Ilmi sanoe’ risolalarida tarse’ atamasiga “javohir qadab ziynatlash” tarzida lug‘at ilova qilishadi. Ma’lumki, muhtasham, shohona kiyimlar javohirlar bilan bezatilganda ko‘rimlilik uchun qadamalarning juft holatiga ahamiyat beriladi. Tarse’ san’atiga amal qilgan shoir ham baytdagi so‘zlarni xuddi bezakka javohir qadaganday qilib, baytga shunday tizadi (8).

Yuqoridagi ikkinchi baytning taqtisi ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:

Topti aning/ karamidin/ in'om,  
 - U - - / U U - - / - ~  
 Chi yamon-yax/shi, chi xosu/ chi avom.  
 - U - - / U U - - / U U ~

Ko‘rinadiki, bayt ikki vaznida yaratilgan. Dastlabki misra yuqoridagi bayt singari *ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu'i musabbag*‘da, ikkinchi misrasi esa *ramali musaddasi solimi maxbuni maqsur* (ruknlari va taqtisi: foilotun failotun failon – U – / UU – / UU ~) vaznida bitilgan. Bu esa *solimi maxbun* tarmog‘idagi vaznlar bir bayt tarkibida o‘rin almashib kelishi mumkinligini yana bir bor tasdiqlaydi. Baytda qarama-qarshi tushunchalardan foydalanish orqali tazod san’atiga, mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlardan foydalanish orqali tanosubga murojaat qilingan.

Keyingi shahobcha *maxbun* bo‘lib, *solimi maxbun* shahobchasi kabi to‘rt vaznni o‘z ichiga oladi. Lekin ular *solimi maxbun* shahobchasi vaznlaridan biroz farq qiladi. Maxbun shahobchasi o‘lchovlarining sadr va ibtidosi *foilotun* asliga emas, uning maxbun tarmog‘i — *failotunga* teng bo‘ladi. Shu xususiyati bilangina yuqoridagi *solimi maxbun* shahobchasi o‘lchovlaridan farqlanadi. Qolgan ikki rukn ular bilan bir xildir. Bu to‘rt vazn:

1. Ramali musaddasi maxbuni mahzuf.
2. Ramali musaddasi maxbuni maqsur.
3. Ramali musaddasi maxbuni maqtu’.
4. Ramali musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag‘.

Tarkibi jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lgan mazkur vaznlar bir she’riy asarning o‘zida birgalikda qo‘llanaveradi. Aruzshunos D.Yusupova esa mazkur holatni ritmik variatsiya deb ataydi. Shuningdek, ritmik muvozanatni vujudga keltiruvchi asosiy unsurlardan biri ritmik variatsiya ekanini ta’kidlaydi. Ritmik variatsiyalar bir vaznning ichki imkoniyatlari asosida yangi variantlarga ega bo‘lishidir. Qolaversa, *ramali musaddasi maxbuni mahzuf (maqsur)* vaznining “birinchi rukni ba’zan, “*failotun*” tarzida ham kelishi mumkin, ya’ni birinchi misra foilotun bilan boshlansa, keyingi misra *failotun* bilan boshlanadi (yoki aksincha) va bu holat ramal bahrining maxbun tarmog‘idagi barcha vaznlarga tegishli ekanligini aytadi (2). Shu sababli dostonda ushbu vaznlar bir-biri bilan o‘rin almashinib qo‘llanavergan.

Dostonning IV bobidan boshlab Shayboniyxon madhi keladi. Dastlabki bob

Sababi izzati odam so‘zdir,  
 Hosilu boqiyi olam so‘zdir (6)

bayti bilan boshlanadi. Baytda muvozana san’ati orqali odamning izzati, olamning boqiyligi natijasi ham so‘z ekanligi ta’kidlanadi. Baytning taqtisi ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:

Sababi iz/zati odam/ so‘zdir,  
 U U - - / U U - - / - -  
 Hosilu bo/qiyi olam/ so‘zdir  
 U U - - / U U - - / - -

Keltirilgan bayt ramal bahrining *ramali musaddasi maxbuni maqtu'* vaznida yozilganligi oydinlashadi. Baytning vazn asosini *foilotun* aslining maxbun tarmog‘i *failotun* (birinchi, ikkinchi ruknlarda) hamda maqtu’

tarmog‘i *fa'lun* (uchinchi ruknlarda) tashkil etadi. Bayt *failotun failotun fa'lun* tarzida ifodalangan. Shuningdek, bayt uchun tanlangan “**so‘zdir**” radifi ayni paytda uning vaznini tanlashiga ham zamin hozirlagan. Zero, “**so‘zdir**” radifi ramal bahrining *fa'lun* tarmog‘iga mos keladi.

XIV bob “Hunarlarining vasfi” deb nomlanadi. Bobda

**Zire-h+ishlar**/da erur ul Dovud,  
 U U - - / U U - - / - ~  
**Ruhi Dovu/d(i)ni** aylar xushnud (6)  
 U U - - / U U - - / - ~

kabi *ramali musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'* vaznida yozilgan bayt keladi. Baytda u urush kiyimida xuddi Dovud (a.s.) singari bo‘lishi, hazratning ruhlari uni qo‘llashi aytildi. Diqqat qilinsa, baytdagi oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi (*Dovud, xushnud*) ma’lum bo‘ladi. Chunki *Dovud, xushnud* so‘zlari tarkibidagi “**u**” cho‘ziq unlisi o‘ta cho‘ziq hijoni keltirib chiqargan. Talaffuzda hijolarning qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziqligi vaznga muvofiq o‘qilishida ko‘rinadi. Keltirilgan baytning birinchi misrasida **zireh** so‘zidagi “**h**” undoshi vazn talabi bilan o‘zidan keyin kelayotgan **ishlarda** so‘zidagi “**ish**” hijosi bilan birikib, vasl hosil qiladi va “**hish**” tarzida o‘qiladi. Shuningdek, baytning ikkinchi misrasida *imola* hodisasi ham qo‘llanilgan. Unga ko‘ra “**Dovud**” so‘ziga bilinar-bilinmas bitta “**i**” unlisi orttirilib talaffuz qilinadi. “Shayboniynoma” dostonidan olingan keyingi baytlar *ramali musaddasi maxbuni mahzuf* hamda *ramali musaddasi maxbuni maqsur* o‘lchovlarida bitilgan. Baytlarning taqtisi quyidagichadir:

Ne ajab, xon	ni Sulaymon	<b>degonim,</b>
U U - -	U U - -	<b>U U -</b>
Bori olam	g‘a ani xon	<b>degonim.</b>
U U - -	U U - -	<b>U U -</b>

hamda

Kim aning huk	midadur vah	<b>sh+ila tayr,</b>
U U - -	U U - -	<b>U U ~</b>
Ham aning il	kidadur shar’	<b>bila xayr</b>
U U - -	U U - -	<b>U U ~</b>

E’tibor berilsa, har ikkala vazn uchinchi ruknida bir-biridan farq qiladi. Sharq mumtoz adabiyotida ramal bahriga mansub ko‘pvaznli olti ruknli she’riy asarlarni yozishda, asosan, yuqorida sakkiz vazndan unumli foydalanilgan. Adabiyotshunoslikda Muhammad Solihning mazkur guruh vaznlari imkoniyatlarini yanada kengaytirishda o‘rnı katta. Chunki u o‘zining “Shayboniynoma” dostonini bitishda asardagi anchagina misralarda *solimi musha‘as*, *maxbuni musha‘as*, *musha‘asi maxbun* shahobchalariga mansub yana o‘n bir vaznidan ham foydalangan.

Foilotun aslining *tash’is* zihofiga duch kelishi natijasida hosil bo‘lgan *maf’uvlun* tarmoq ruknining nomi *musha‘as* bo‘lib, “sochilgan” degan ma’noni ifodalaydi. Ushbu tarmoq rukn ramal bahrining olti ruknli vaznlari tarkibida ishtirot etadi. Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a”da “Tash’is — foilotunni tash’is qilsoq, “fo o tun” qolur” — deydi (11). Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da “Tash’is” — fo’ilotun vatadining ikki mutaharrikidin birining neqotidur, to fo’otun qolg‘ay, yo

folotun qolg‘ay, har taqdir bila maf‘uvlun aning o‘rnig‘a qo‘yarlar, — deb ta‘kidlaydi (1). Zahiriddin Bobur ham “Tash’is, vatadi maj‘mudin bir mutaharrik harfni hazf qilmog‘lig‘dur nechukkim, fo‘ilotun-fo‘otun yo, folotun bo‘lg‘ay, maf‘uvlungs‘a badl qilurlar va muni musha‘as derlar”, — deb ustozlari izidan boradi (4).

Ko‘rib o‘tilgan *solimi maxbun* va *maxbun* shahobchalaridan *solimi musha‘as* va *maxbuni musha‘as* shahobchalari ikkinchi ruknlar o‘rnida *foilotun* aslining maxbun tarmog‘i — *failotun* emas, shu aslning musha‘as tarmog‘i — *maf‘uvlun* qo‘llanishi bilangina farqlanadi. Natijada yangi sakkiz vazn yuzaga keladi. *Musha‘asi maxbun* shahobchasi esa to‘rt vaznni o‘z ichiga oladi. Ushbu shahobcha vaznlarining dastlabki ruknida *foilotun* aslining maxbun tarmog‘i — *failotun* o‘rniga musha‘as tarmog‘i — *maf‘uvlun* tarmoq rukni kelishi bilan maxbun shahobchasidan farqlanadi.

Muhammad Solihning “Shayboniyoma” dostonidagi ba‘zi misralargina *ramali musaddasi solimi musha‘asi maxbuni mahzuf* vaznida yaratilgan. Masalan, dostondagi:

**Yetkurub erdi qo‘rg‘onga o‘zin,  
Andog‘i mahkam qo‘rg‘ong‘a so‘zin.**

...Ul nabira o‘n ikki yoshida,  
Lek yuz fitna oning boshida.

...Shoh Abulmuhsin g‘ofilg‘a magar,  
Yiborib erdilar ul xayl xabar (6)

singari baytlarning belgilangan misralari *ramali musaddasi solimi musha‘asi maxbuni mahzuf* vaznidadir. Ushbu vaznning asosini birinchi ruknlarda foilotun aslining solimi, ikkinchi ruknlarda shu aslning musha‘as tarmog‘i — *maf‘uvlun*, oxirgi ruknlari esa mazkur aslining maxbuni mahzuf tarmog‘i — *failun* tashkil etadi. Mazkur o‘lchov she‘riyatimizda deyarli qo‘llanilmagan.

*Ramali musaddasi solimi musha‘asi maxbuni maqsur* vazni “Shayboniyoma” dostonining ayrim misralarigagina xos. Masalan, quyidagi baytlarning birinchi ruknlari foilotun aslining solimiga, ikkinchi ruknlari shu aslning musha‘as tarmog‘i — *maf‘uvlunga*, oxirgi ruknlari esa mazkur aslining maxbuni maqsur tarmog‘i — *failonga* teng bo‘ladi.

Bosturub kel/ga-n+uluslar/ bisyor,  
— U — / U U — / — ~  
**Yig‘lag‘ondur/lar xon ho/lig‘a zor** (6).  
— U — / — — / U U ~

Keltirilgan bayt tahlilida belgilangan misragina *ramali musaddasi solimi musha‘asi maxbuni maqsur* vaznida yozilganligi oydinlashadi. Oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziq (U U ~)ligi uni yuqoridagi vazndan farqlashga asos bo‘ladi.

Dostonda *ramali musaddasi solimi musha‘asi maxbuni maqtu’* o‘lchovida bitilgan baytlar ham uchraydi. Garchi ushbu vazn ham she‘riyatimizda faol bo‘lmasa-da, “Shayboniyoma” dostonida undan keng foydalilanilgan. Ramali musaddasi solimi musha‘asi maqtu’ vaznining ruknlari va chizmasi har misrada

Foilotun maf‘uvlun fa‘lun

— U — — / — — — / — —

singari bo‘lib, sadr va ibtidoda *foilotun* asliga, hashvlarda foilotun aslining musha‘as tarmog‘i — *maf’uvlunga*, aruz va zarblarda esa shu aslining maqtu’ tarmog‘i — *fa’lunga* tengdir. Chunonchi, dostondagi

Oqibat qildi bu yanglig‘ borin,  
**Ayladi qudrat qahr izhorin.**

...Xok rez uzra minib turg‘onda,  
**Pahlavonlikdin dam urg‘onda** (6)

kabi baytlarning ikkinchi misralari ushbu vaznda yaratilgan.

Oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilangina yuqoridagidan farqlanuvchi *ramali musaddasi solimi musha‘asi maqtu’i musabbag‘* (ruknlari va taqtisi: foilotun *maf’uvlun fa’lon* — U — — / — — / — ~) vaznini “Shayboniynoma” dostonidagi ba’zi misralarda uchratamiz. Masalan,

So‘zları bu/ki, yurub Xus/ravshoh,  
— U — — / U U — — / — ~  
**Kelsu-n+o‘zbak/ni qilmay ogoh** (6)  
— U — — / — — — / — ~

baytining ikkinchi misrasi,

... **Chun viloyat/g‘a kirdi/ Sulton,**  
— U — — / — — — / — ~  
Qildi yorlig‘/ki chi yaxshi,/ chi yamon (6)  
— U — — / U U — — / U U ~

baytining birinchi misrasi shu vazndadir.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostonida ramal bahrining “maxbuni musha‘as” shahobchasi vaznlari ham istifoda etilgan. Shoir bu vaznning imkoniyatini yanada kengaytirdi: hashvda keladigan maxbun (failotun U U — —) o‘rnida uning birinchi va ikkinchi qisqa hijolarini bir cho‘ziq hijoga almashtirib, musha‘as (*maf’uvlun* — —) tarmog‘ini ham qo‘lladi (3). Xususan,

**Ki-m+edi Bo/qi Tarxon,/ bilingiz,**  
U U — — / — — — / U U —  
Bilibon qis/sa boshig‘a/ kelingiz  
U U — — / U U — — / U U —  
yoki:  
**Cherikin yig‘/sun, fursat/ berali,**  
U U — — / — — — / U U —  
Ul yig‘indin/ so‘-ng+olarni terali  
U U — — / U U — — / U U —

baytlarining birinchi misralari *ramali musaddasi maxbuni musha‘asi mahzuf* vaznida yozilgan. Ushbu vazn foilotun (— U — —) aslining maxbun tarmog‘i *failotun* (UU — —), shu aslining musha‘as tarmog‘i — *mafuvlun* (— — —), uning maxbuni mahzuf tarmog‘i *failun* (UU —) ning ketma-ket takroridan hosil bo‘ladi. Umuman keltirilgan baytlar uchun tanlangan **bilingiz, kelingiz, berali, terali** kabi qofiyadosh so‘zlar

bir vaqtning o‘zida uning vazni tanlanishiga ham sabab bo‘lgan, ya’ni ushbu so‘zlar *failun* (U U –) taqtisiiga mos keladi, boshqacha aytganda, uning *maxbuni musha’asi* shahobchasi vaznlarida yozilishini taqozo etadi.

“Shayboniyoma” dostonida qo‘llanilgan keyingi vazn *ramali musaddasi maxbuni musha’asi maqtu’* hisoblanadi. Bu vazn ham she’riyatimizda deyarli qo‘llanilmagan.

**...Maza topmas/ erdim bu/ jondin**

U U – – / – – – / – –

Lazzate qil/ma-s+edim i/mondin.

U U – – / U U – – / – –

**Yoki:**

Se-n+agar vah/m(i) qilursen/ xondin,

U U – – / U U – – / – –

**Kecha olmas/sen bu o‘g’/londin (6).**

U U – – / – – – / – –

Baylardagi belgilangan misralarga e’tibor berilsa, vazn asosi *foilotun* aslining maxbun tarmog‘i (birinchi), musha’as tarmog‘i (ikkinchi) hamda maqtu’ tarmog‘i (uchinchidan iboratligi oydinlashadi. Shuning uchun belgilangan misralar *failotun mafuvlun fa’lun* tarzida ifodalanadi. Baytlarda vazn talabi bilan vasl hodisasi ham uchraydi.

Dostonda yuqoridagi vazndan misralardagi hijolarning o‘ta cho‘ziqligi bilan farqlanuvchi *ramali musaddasi maxbuni musha’asi maqtu’i musabbag’* (ruknlari va taqtisi: failotun maf’uvlun fa’lon U U – – / – – / – ~) ham uchraydi. Chunonchi:

Zoe etmosbiz oni biz hargiz,  
**Ani qo‘ymosbiz hargiz ojiz**

baytining ikkinchi misrasi,

**Shohi nuroniy Sulton Mahmud,  
Yusufi soniy Sulton Mahmud (6)**

baytining esa har ikkala misrasi ushbu vazn ohangida yaratilgan. Baytning so‘nggi aruz va zarbida qo‘llanilgan **hargiz, ojiz, Mahmud** so‘zlari uning *maqtu’i musabbag’* tarmog‘ida yozilishini taqozo qilgan.

“Shayboniyoma” dostonida sadr va ibtidoda keladigan foilotun aslining maxbun tarmog‘ini uning musha’as tarmog‘i bilan o‘rnini almashtirib qo‘llash holatlari ham uchraydi. Mazkur holat ramal bahrining *musha’asi maxbun* shahobchasi vaznlariga xosdir. Musha’asi maxbun shahobchasingin dastlabki o‘lchovi *ramali musaddasi musha’asi maqtu’* hisoblanib, ruknlari va taqtisi bir misrada

maf’uvlun failotun fa’lun  
– – – / U U – – / – –

kabidir. Jumladan,

**Shafqat birla mani shod etdi,**  
Qayg‘udin bandani ozod etdi.

Yaxshiliq bo‘lg‘usidir sizlarga,

### Davr evrulg‘usidir sizlarga (6)

baytlarining belgilangan misrasi *ramali musaddasi musha’asi maqtu*da yozilgan. “Shayboniynoma” dostonida oxirgi hijoning o’ta cho‘ziqligi bilangina yuqoridagidan farqlanuvchi *ramali musaddasi musha’asi maqtu* ‘musabbag’ (ruknlari va taqt’i: maf’uvlun failotun fa’lon — / U U — / — ~) vaznida ham bir necha misralar yaratilgan. Masalan, baytining birinchi misrasi shu o’lchovdadir.

Boysung‘ur	bila Sulton	Ma’sud,
— — —	U U — —	— ~
Chiqorib er	dilar ul el	din dud
U U — —	U U — —	— ~

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, Muhammad Solih dostonni yozishda yana *ramali musaddasi musha’asi maxbuni mahzuf* va *ramali musaddasi musha’asi maxbuni maqsur* vaznlaridan ham foydalangan.

Xon taqi ko‘rgach aning kelishin,  
**Solib Tengri taolog‘a ishin** (6).

Qirdilar Hamza degonni behad,  
**Tomlor qolg‘onig‘a qildi madad** (6).

**Bor Sultonali mirzog‘a bu tavr,**  
Bot o’tar bo‘lg‘oy oning joniga javr (6).

Yuqoridagi to‘rt vazn tarkibida foilotunning maxbun tarmog‘i *failotun* o‘rnida shu aslning musha’as tarmog‘i – *maf’uvlunning* qo’llanishi aruz tizimiga xos bir qoida hisoblanadi. Chunki bu holat *sababi saqil* (U U)ning *sababi xafif* (–) bilan, boshqacha aytganda, ikki qisqa hijoning bir cho‘ziq hijo bilan almashтирilishi mumkinligi bois sodir bo‘ladi. Lekin, aruzshunoslikdagi bu kabi holatlarda uning ichki qonunlari buzilishi ro‘y bermaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. MAT. 10 jildlik. 10-jild. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. — 537 б.
2. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. —T.: Ta’lim – Media. 2019. – 184 б.
3. Zohidova D. Aruz saboqlari. — T.: Mumtoz so‘z, 2016. – 111 б.
4. Бобир Захириддин. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Хасанов. — Т.: Фан, 1971. — 627 б.
5. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Нашрга тайёрловчилар: Ҳомидий Ҳ., Тожибоева О. — Т.: Kafolat print, 2021. — 496 б.
6. Муҳаммад Солих. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи: Шодиев Э. — Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. — 318 б.
7. Пропп В.Я. Русский героический эпос. — М., 1958. — 603 с.
8. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. — Т.: Sharq, 2020. – 203 б.
9. Ўзбек адабиёти. Тўрт томлик. Учинчи том (В.Зоҳидов таҳрири остида). — Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1959. — 378 б.
10. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи лугати. — Т.: Шарқ, 1998. — 224 б.

11. Шайх Аҳмад ибн Ҳудойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. — Тошкент: Ҳазина, 1996. — 154 б.
12. Юсупова Д. Жангнома достонларда шеърий ўлчов масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, — 2006. — №2. — Б. 55.
13. Юсупова Д. Алишер Навоий “Ҳамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйгунилиги. Монография. — Т.: Mumtoz so‘z, 2010. — 144 б.
14. Фитрат А. Мухаммад Солих / Танланган асарлар. II жилд. — Т.: Маънавият, 2000. — 208 б.

### References

1. Alisher Navoiy. *Mezon ul-avzon*, Vol.10, Tashkent: Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013, 537 p.
2. Yusupova D. *Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari* (The rules of Aruz weight and the basics of classical poetics), Tashkent: Ta’lim – Media, 2019, 184 p.
3. Zohidova D. *Aruz saboqlari* Tashkent: Mumtoz suz, 2016, 111 p.
4. Bobir Zahiriddin *Muhtasar*, Tashkent: Fan, 1971, 627 p.
5. Mallaev N. *Uzbek adabijoti tarihi* (History of Uzbek literature), Tashkent: Kafolat print, 2021, 496 p.
6. Muhammad Solih. *Shajbonijoma*, Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Adabijot va san’at nashrijoti, 1989, 318 p.
7. Propp V.Ja. *Russkij geroicheskij jepos* (Russian Heroic Epic), Moscow, 1958, 603 p.
8. Raxmonov V. *She’r san’atlari* (Poetic arts), Tashkent: Sharq, 2020, 203 p.
9. *Uzbek adabijoti* (Uzbek literature), Vol.3, Tashkent: Badiij adabijot nashrijoti, 1959, 378 p.
10. Hozhiahmedov A. *Uzbek aruzi lugati* (Uzbek aruzi dictionary), Tashkent: Sharq, 1998, 224 p.
11. Shajh Ahmad ibn Hudojdod Tarozij, *Funun ul-baloea*, Tashkent: Hazina, 1996, 154 p.
12. Jusupova D. *Uzbek tili va adabijoti*, 2006, No. 2, 55 p.
13. Jusupova D. *Alisher Navoij “Hamsa”sida mazmun va ritmning badiij ujgunligi* (Artistic combination of content and rhythm in Alisher Navoi “Hamsa”), Tashkent: Mumtoz suz, 2010, 144 p.
14. Fitrat A. *Muhammad Solih, Tanlangan asarlar* (Selected works), Vol. 2, Tashkent: Manaviyat, 2000, 208 p.